

TA'LIMDA TEXNOLOGIK YONDASHUV: PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O'RNI

Ilmiy rahbar: TTAUF O'zbek tili va adabiyot

kafedrasi mudirasi p.f.n, dotsent

Olimova Dano Shakirovna

Nurimova Malika

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
1 -kurs laboratoriya ishi mutaxasisligi magistranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'limgarayonida texnologik yondashuvning ahamiyati, pedagogik mahoratning mazmuni va uning o'qituvchining kasbiy faoliyatida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, interaktiv usullar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali o'qitish samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy o'qituvchidan talab qilinadigan kompetensiyalar, innovatsion metodlardan foydalanish va uzlusiz kasbiy rivojlanish zarurati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limgarayonida texnologiyasi, pedagogik mahorat, raqamli ta'limgarayonida o'qituvchi faoliyati, innovatsiya, interaktiv metodlar.

Bugungi kunda ta'limgarayonida yuz berayotgan o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarni keng joriy etilishi o'qituvchidan yangicha yondashuvni talab qilmoqda. O'quvchilarining bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashga yo'naltirish va dars jarayonini interaktiv shaklda tashkil etish uchun o'qituvchining pedagogik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ta'limgarayonida eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Ta'limgarayonida samaradorligi va jozibasi shu jarayonda faoliyat yuritayotgan pedagog hodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va mahorati bilan belgilanadi. Mahorat - muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlilik bilan tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

Pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining deyarli barcha bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda o‘quvchining shaxsiy qiziqishlari ta’limda hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Shuning uchun ham zamonaviy ta’lim strategiyasining markazida o‘quvchining shaxsiyati, uning imkoniyat va ehtiyojlari, qobiliyatlarini moyilliklarini hisobga olgan holda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv turadi. Bu yondashuvni hayotga tatbiq etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish mumkin.

Bugungi kunda “pedagogik texnologiya” atamasi ta’lim sohasida keng qo‘llanilmoqda. Texnologiya so‘zi har qanday kasb yoki faoliyat turida ishlataladigan usul va metodlar to‘plami sifatida tushuniladi. Pedagogik texnologiya esa o‘qitish va o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish, natijaga yo‘naltirilgan ta’lim loyihasini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo‘llashga asoslanadi. Yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali o‘qituvchining pedagogik tafakkuri yangilanadi, bu esa metodik tilning aniqligi, izchilligi va ilmiy asoslanganligida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim shakllari yuqori kommunikativ qobiliyatlar va o‘quvchilarini o‘quv faoliyatiga faol jalb qilish, nutq va tinglash qobiliyatları bilim va ko‘nikmalarini faollashtirish, o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini samarali rivojlantirish bilan tavsiflanadi.

Bu zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga moslashishga yordam beradi, chunki jamiyat ishbilarmon odamlarga muhtoj. Har qanday innovatsion faoliyatning asosi ijodkorlikdir. Ijodiy faoliyat hissiy va intellektual sohalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Turli pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarining o‘rganish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi, shuningdek, ularda mavzuga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Yangi ta’lim yondashuvlari doirasida o‘quvchilarda motivatsiya shakllantirish muhim o‘rinni egallaydi. Motivatsiyaning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda darsga barqaror qiziqish uyg‘otish, ularning muloqot qobiliyatlarini va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdir. Shu bois, o‘qituvchining asosiy vazifasi — o‘quvchilarning faol bilim olish faoliyatini rag‘batlantirish hamda har bir o‘quvchining ijodiy imkoniyatlarini ochib beradigan usul va vositalarni to‘g‘ri tanlashdan iborat.

Texnologik yondashuv – bu zamonaviy texnika va dasturiy vositalarni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim olish darajasini oshirishga

xizmat qiluvchi usuldir. Masofaviy ta’lim, elektron darsliklar, interaktiv platformalar – bularning barchasi ta’lim sifatini oshiradi.¹

Pedagogik mahorat – bu o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar majmuasidir. U o‘z ichiga darsni rejalashtirish, samarali o‘quv metodlarini tanlash, o‘quvchilar bilan kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish, baholash va refleksiya qilishni oladi.

Pedagogik maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ta’limning innovatsion shakllarini o‘rganish va xorijiy uslubiy adabiyotlarni o‘qish;
2. o‘quv samaradorligini oshirish vositasi sifatida texnologiya darslarida PTni qo‘llash;
3. turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali texnologiya darslarida ijodiy faoliyat uchun sharoit yaratish;
4. texnologiya darslarida o‘qitishning innovatsion shakllaridan foydalanish tajribasini umumlashtirish.

Shuningdek, pedagogik faoliyatda reproduktivlikning ko‘p bosqichli va murakkab tuzilishga ega ekani ko‘pincha yetarlicha e’tiborga olinmaydi. Aslida esa bu — bilimlarni oddiy, yuzaki takrorlashdan tortib, murakkab va o‘zgaruvchan sharoitlarda ularni moslashtirib, amalda qo‘llashgacha bo‘lgan salohiyatni anglatadi. Reproduktivlik — bu o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini turli holatlarda samarali tarzda qayta tiklash va amalga oshirish qobiliyatidir.

Pedagogik ijodkorlik faqatgina yuqori darajadagi kasbiy bilim va pedagogik kompetensiya asosida muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Afsuski, bu kompetensiya ko‘plab o‘qituvchilarda yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, bu holat ko‘pincha o‘qituvchilik faoliyatida turli didaktik muammolarga sabab bo‘ladi.

Haqiqiy pedagogik ijodkorlik esa yangilik yaratishning subyektiv emas, balki ob’yektiv mezonlariga javob berishi bilan ajralib turadi. Ba’zilar bu mezonlarga faqat kam sonli o‘qituvchilar javob bera oladi, deb o‘ylashadi. Biroq bu noto‘g‘ri fikr bo‘lib, u ko‘pincha ijodiy yondashuv natijalarini to‘g‘ri tushunmaslikdan kelib chiqadi.

¹ Turaev R., Qodirova D. “Pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar nafaqat o‘qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlaridan foydalanish, balki o‘quv jarayonini optimallashtirish, ta’lim samaradorligini oshirish tamoyillarini aniqlash va texnikasini ishlab chiqishdir.

Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanidan chuqur bilimga ega bo‘lishi, balki raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasini ham shakllantirishi zarur. Google Classroom, Zoom, Padlet, Quizizz kabi vositalar dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, malaka oshirish kurslarida qatnashishi va innovatsion tajribalarni o‘rganishi zarur.

Bundan tashqari, “Klaster yaratish” texnikasi – bu o‘quvchilarning muayyan mavzu yuzasidan mavjud bilimlarini tizimli tartibga solish usulidir. Klaster — bu grafik shakldagi tuzilma bo‘lib, unda asosiy tushuncha atrofidagi g‘oyalar semantik bog‘liqlikda ko‘rsatiladi. “Klaster” so‘zi tarjimada “dasta” yoki “to‘da” degan ma’noni anglatadi. Ushbu uslub o‘quvchilarga mavzu yuzasidan erkin fikr bildirish imkonini beradi va uni darsning turli bosqichlarida qo‘llash mumkin: masalan, qiyinchilik yuzaga kelganda aqliy faoliyatni faollashtirishda, tushunish bosqichida bilimlarni tartibga solishda, mulohaza bosqichida esa mavzu yuzasidan xulosa chiqarishda foydalilanadi. Klaster yaratishdan so‘ng, o‘quvchilarga mavzu yuzasidan o‘z fikr va takliflarini bildirish, guruhda ishlash, fikr almashish tavsiya etiladi.

Shuningdek, O‘yinlar o‘quvchilarga differensial yondashish, har bir o‘quvchini mehnatga jalgan etish, uning qiziqishlari, mayllari va texnologik jaayonlarning nazariy tomonlarini ilmiy jihatdan o‘rganish darajasini hisobga olish imkonini beradi. O‘yin tabiatidagi mashqlar o‘quvchilarni yangi taassurotlar bilan boyitadi, ularning nazriy bilim boyligini faollashtiradi, rivojlanish funktsiyasini bajaradi va charchoqni ketkazadi. Ular maqsadi, mazmuni, tashkil etish va amalga oshirish usullariga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, ro‘lli o‘yin uning ishtirokchilari tomonidan odamlarning haqiqiy amaliy faoliyatini shartli ravishda takrorlashni ifodalaydi va haqiqiy muloqot uchun sharoit yaratadi. Ro‘lli o‘yin o‘rganishning dastlabki bosqichida ham, yuqori bosqichda ham qo‘llanilishi mumkin. Unda har doim harakatning shartlarini ko‘rsatadigan, bajarilishi kerak bo‘lgan harakatlar va hal qilinishi kerak bo‘lgan muammoni tavsiflovchi vaziyat

taqdim etiladi. Vaziyatda sheriklarning ijtimoiy munosabatlari haqida ma'lumot berish kerak. Ro'l tavsifi ro'llar kartasida berilgan. O'quvchilarga xarakterga kirish uchun vaqt berilishi kerak. Men ro'llarni tayinlayman, lekin ularni o'quvchilar o'zлari tanlashi mumkin. Bu guruhning xususiyatlariga bog'liq va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, ularni o'zlashtirish darajasiga bog'liq. Texnologiya darslarida o'yin texnologiyalari kasblar bilan tanishtirishga yo'naltirilgan darslarda juda qo'l keladi.

“Sinkvin yozish” texnikasi – fransuz tilidagi “cinquain” so‘zidan olingan bo‘lib, bu ma'lum tuzilishga ega, besh satrdan iborat qisqa she'r shaklidir. Ushbu metodikaning asosiy vazifasi – o'quvchidan o'rganilgan ma'lumotlarni yig'ib, qisqa va aniq tarzda ifodalashni talab qilishdir. Bu texnika o'quvchilarga har qanday holatda mustaqil fikr yuritish va ijodiy yondashish imkonini beradi. Garchi erkinlikka asoslangan bo'lsa-da, sinkvin muayyan qoidalar asosida tuziladi. Shu tarzda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi orqali o'quvchilarni turli axborot manbalari bilan ishlashga yo'naltirish mumkin. Ular ma'lumotni saralash, tahlil qilish va baholash kabi amaliy ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, texnologik yondashuv va pedagogik mahorat uyg'unligi bugungi ta'lim tizimida o'qituvchining muvaffaqiyat kalitidir. O'qituvchi o'z faoliyatida zamonaviy vositalardan foydalansa, bu o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mustahkam bilimlarni shakllantiradi va zamon talablariga javob beradigan natijalarni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Turaev R., Qodirova D. “Pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Bobomurodov A. “Ta'limda innovatsion texnologiyalar”. – Samarqand, 2021.
4. Soliyev A.X., Niyozova D.S. “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitishda qo'llash”. – T.: Fan va texnologiya, 2022.